



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



VATAN-AZIZ, TINCHLIK BARQAROR

Dilnura Abduvahobova

*Andijon viloyati, Bulqoboshi tumanidagi 31-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi, "Yosh ijodkorlar" klubining a'zosi.*

Vatan! Bu-har qanday insonning yuragi, qalbi, ruhi orom oladigan muqaddas go'sha. Unda nafaqat yashash mumkin, balki tarix, kelajak yaratiladi. Biz yoshlar badiiy asarlar, turli adabiyotlar mutolaa qilar ekanmiz, o'qiyotgan asarimizning har biri bizni hayotga, Vatanga, yaqinlarimiz bilan mehr-oqibatli bo'lishga da'vat qilayotgan, undayotganga o'xshaydi. Biz-baxtli yoshlarmiz! Yurtimiz farovon, kunlarimiz-sokin, osoyishta, osmonimiz sof, erkinmiz. Barcha istaklarimiz, orzu-maqсадlarimizning amalga oshishi uchun imkoniyatlar yetarli. Faqat, qalbda intilish, harakat bo'lsa bas. Haqiqatan ham, agar inson bir nimani diliga tugib, unga yetishish uchun astoydil harakat qilsa, mehnatdan bo'yin tovlamasa, kurashsa albatta unga erishar ekan. Bu-aniq! Chunki, otam, onam, bobom, buvim, yaqin kattalarning hayot tajribalari, intilishlari haqidagi real voqealarga boy, mazmunli kechinmalariga o'zimiz guvohmiz. Shunday mamlakatda, bayram, to'y-tomoshalar to'xtamaydigan, to'qlik va farovonlik ustivor yurtida yashayotganimizdan mamnun holda, o'qiymiz, o'rganamiz, ijod qilamiz.

Meni bir narsa uzoq o'yga toldiradi: biz ko'z ochib ko'rgan yurt-O'zbekiston azaldan tinch va sokin mamlakat. Bizning tasavvurivizda, yurtimiz doim shunday edi, shunday bo'lib qoladi, yangilanib borayotgan, taraqqiy etib, gullayotgan go'zal elimizning xalqi, odamlari ham tinchliksevarxalq. Shuning uchun ham bu yurt-tinchlik ramzi, boshqacha bo'lishini sira tasavvur qila olmaymiz. Ammo...Dunyoning qaysidir puchmoqlarida, qaysidir davlatlar o'rtasida qonli urush avj olgan, qaysidir mamlakatlar bir-birlariga tahdidni kuchaytirgani haqidagi xabarlardan seskanamiz, xavotirga tushamiz. Ayniqsa, o'tgan oquv yili aynan urush borayotgan mamlakatlardan birida erta yakunlandi. Sababi, bolalar urush qurboni bo'lgandilar. Nohaqlikdan, notinchlikdan aziyat chekayotgan, suvga, nonga tashna yurtida yashayotgan tengdoshlarimga achinaman, ular haqida o'ylayman. Ularning bolaligi qanday o'tyapti ekan?! Ular o'z Vatamlari haqida, bolalik, yoshlik zavqi haqida she'rlar yod olisharmikin?! Agar ular orasida ijodkorlari bo'lsa, o'z ijodlarida nimalarni aks ettirishayotgan ekan?! Shular haqida juda bilgim keladi. Men o'z yurtimni hech qaysi boy yoki taraqqiy etgan davlatga almashmasdim.

O'siq o'tlar hidi anqib turgan dalalar, ekinzorlar, sshoxlari mevalarining mo'lligidan egilib turgan daraxtzor bog'lari, issiq non uzib olingan qiziq tandirlar...Jambil, rayhon hidi anqib turgan o'zbek hovlilari...bularni sevmay bo'ladimi?! "Ko'zmunchog'im", "farishtam" deb erkalaydi biz nabiralarini bobojon, buvijonim. Onam har gal non yopganda, bug'doy nonining hidi dimog'imizga uriladi. Kulchalarni holvaytarlarga botirib yeymiz. Buning ta'mini, bunday mazani hech qaysi ta'm berolmaydi. Men ana shu yurtning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bir bo`lagiman, boy an`analarga, muqaddas urf-odatlari bilan jahonga dong taratgan o`zbek degan yurtning bir farzandi ekanimdan g`ururlanaman.

